

INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ilmiy rahbar: Aliyeva Sarvinoz Abbasjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: aliyeva907@gmail.com

Rajabova Muxlisa Zaynobiddin qizi

Tursunaliyeva Zulfizarxon Lazizjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti, Ingliz tili va adabiyoti fakulteti

21.88 guruh talabalari

Annotatsiya: Bugungi kunda ingliz tili dunyodagi eng ommaviy tillardan biri hisoblanib, u dunyo aholisi tomonidan eng ko'p o'rganilayotgan til bo'lib turibdi. Bu tilni o'rganishga oshib borayotgan talablar tufayli ingliz tilini o'rganish uchun turli xil zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanilmoqda. Bu usul til o'rganish sifatini yaxshilaydi va o'rganish darajasini tezlashtiradi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida chet tillariga berilgan katta ahamiyat hamda ularni o'rganish uchun zarur bo'lgan innovatsion texnologiyalar yoritilgan..

Annotation: Today, English is considered one of the most popular languages in the world, and it is the most studied language by the world's population. Due to the increasing demands for learning this language, various modern innovative technologies are used to learn English. This method improves the quality of language learning and accelerates the level of learning. This article highlights the great importance given to foreign languages in the Republic of Uzbekistan and the innovative technologies necessary for learning them.

Аннотация: На сегодняшний день английский язык считается одним из самых популярных языков в мире, и это самый изучаемый язык населением планеты. В связи с возрастающими запросами на изучение этого языка для изучения английского языка используются различные современные инновационные технологии. метод повышает качество изучения языка и ускоряет уровень обучения. В данной статье подчеркивается большое значение, придаваемое иностранным языкам в Республике Узбекистан и инновационные технологии, необходимые для их изучения.

Kalit so'zlar: Chet tili, CEFR, o'yin, innovatsion texnologiya, texnologik vositalar, metodlar.

Key words: Foreign language, CEFR, game, innovative technology, technological tools, methods.

Ключевые слова: Иностранный язык, СЭФР, игра, инновационная технология, технологические средства, приемы.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini, ayniqsa, ingliz tilini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Mamlakatimizning birinchi prezidenti Islom Karimov shunday ta'kidlagandi: "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir"[Islom Abdig'aniyevich Karimov 2016-yil 6-maydagi ma'ruzasi]. Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini" o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab oshib bormoqda. Shu sababli O'zbekistonda chet tillarining o'qitilishi va chet tilini o'qitayotgan o'qituvchilarning xorijiy tilni bilish darajasini aniqlash va uni baholash uchun sertifikat(CEFR) joriy etildi. Bu sertifikat umumyevropa ramkalari tavsiyanomalariga mos holda yangi usul va talabda ishlab chiqildi.

Shunga ko'ra umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari va universitet talabalari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tilini bilish darajasi to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda.

Shu kabi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish xorijiy tillarni o'rganish va uni yaxshi o'zlashtirish oson bo'ladi. Shuningdek chet tilini o'rganishda yuqorida aytib o'tilgan texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzallik taraflari bor. Til o'rganish va o'rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o'rni beqiyos hisoblanadi. Zamonaviy vositalardan foydalanish xorijiy til, shu jumladan, ingliz tilini o'rganishning har bir aspektini ya'ni o'qish, yozish, gapirish va tinglab tushunishda qo'l keladi. Misol uchun, biz tinglab tushunish uchun CD disklar, kompyuter va playerlarsiz bu jarayonni amalga oshira olmaymiz. Chet tilini o'rganishning bu qismi til o'rganuvchilar uchun eng muhim va kerakli qismi hisoblanib, bunda til o'rganuvchi shaxs bir paytda so'zlayotgan kishining birinchi navbstda talaffuzi, so'ng esa grammatik qoidalarga rioya qilganligi va so'z boyligiga e'tibor qilishi talab etiladi.

Xorijiy tillarni bugungi kundagi innovatsion texnologiyalar orqali o'rganish va yaxshi o'zlashtirish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Shuningdek ushbu jarayonda, jumladan:

– o'quvchi kompyuterlardan foydalanganda chet tilidagi video yoki filmlarni , va ularning namoyishlarni, chet tilidagi dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi va shuningdek eshitishi ham mumkin;

–bugungi kundagi ko'plab chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniadagi dasturlarni eshitish ham tomosha qilsa bo'ladi;

– juda ommabop va samarali usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish;

– CD pleyerlardan foydalanish ham tinglab tushunish uchun eng an'anaviy usul hisoblanadi.

Bu kabi zamonaviy innovatsion usullardan foydalanish til o'rganuvchilarning chet tilini o'zlashtirish jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlab beradi.

to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi. Shuningdek aqliy jihatdan bajariladigan metodlar ham bir talay. Masalan pastdagi usul ham juda samarali hisoblanadi.

“G'OYAVIY HUJUM” METODI

Bu metod til o'rganuvchilarning mazkur jarayondagi ishtiroki, ya'ni faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, ma'lum bir mazvu yuzasidan turli xil g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi. Bu metodining asosiy maqsadi va sharti mashg'ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ushbu metoddan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darslarida innovatsion strategiyalaridan foydalanish natijasida o'quvchilarda izchil fikrlash qobiliyatlari hosil bo'ladi, ularning nutqi faollashadi, tezkor va to'g'ri javob berish qobiliyati shakllanadi. O'quvchi darslarni to'liq rejalashtirishga harakat qiladi. Bu kam o'rganilgan o'quv qo'llanmasining dinamik mavzulariga aylantiradi. O'quv dasturi o'z oldiga erkin fikrlaydigan, barkamol, rivojlangan shaxsni o'rgatish vazifasini qo'ygan bo'lsa, yuqorida aytib o'tigan usullardan foydalanish samarali hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bekmuratova U.B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Eurasian Journal of Academic Research. Toshkent — 2021. № 2(1). 21-24-bet.
2. Муминова Ф. М. "Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish" — 2020. — № 18 (308). — С. 590-592-bet.
3. Sanayeva.G.M. "Ingliz tili fanini o'qitishda yangi interfaol metodlarning ahamiyati va samaradorligi". Scientific Journal Impact Factor. Toshkent-2021. 679-680-bet.
4. Toirova N. et al. LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN EASTERN CULTURE //FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI. – 2022. – T. 3. – №. 5. – С. 75-84.
5. Sarvinoz A., Maftuna A. LINGUOCULTURAL PECULARITIES OF THE UZBEK GEORTONYM NAVRUZ //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – T. 3. – №. 28. – С. 180-186.
6. Alieva, S., & Rozikova, G. (2023). LINGUOCULTURAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF THANKSGIVING DAY LEXEMES IN ENGLISH NATION. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 227–232. Retrieved from <https://researchcitations.com/index.php/ibast/article/view/2809>
7. Aliyeva S. A. Q. LINGUOCULTURAL PROPERTIES OF PHRASEOLOGICAL UNITS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. – 2021. – T. 2. – №. 11. – С. 135-140.
8. Zaylobidinovna R. G. et al. "AYOL" KONSEPTI BILAN BOG 'LIQ INGLIZ XALQI GEORTONIMLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 3. – С. 518-523.